

RAQAMLI IQTISODIYOT

ILMIY-ELEKTRON JURNALI

OAV №0237

ISSN 2181-4430



“

Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat
iqtisodiyotining kelajagi yo'q.

”

Shavkat Mirziyoyev

RITM

RAQAMLI
IQTISODIYOT
TADQIQOTLARI
MARKAZI

10-SON

www.infocom.uz

“Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali

“Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi “Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi davriy nashri bo‘lib, raqamli iqtisodiyot sohasida yangiliklar, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt sohalarida ilmiy-amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish jarayonlarini yoritadi.

Jurnal OAK Rayosatining Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

Jurnal har chorakda bir marta elektron shaklda nashr qilinadi va www.infocom.uz saytiga yuklanadi.

“Digital economy” scientific-electronic journal

Scientific and electronic journal “Digital economy” is a periodical publication of the “Digital Economy Research Center” government entity under the Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. Scientific and electronic journal illuminates the processes of increasing the efficiency of applied research and increasing economic efficiency through the introduction of digital technologies.

The journal is included in the list of recommended national scientific publications for publication of the main scientific results of dissertations on economic sciences of the Supreme attestation commission.

The journal publishes quarterly in electronic form and uploads to the website www.infocom.uz.

RAQAMLI IQTISODIYOT

ILMIY-ELEKTRON JURNALI

MUASSIS

“Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi

TAHRIR KENGASHI RAISI

Kravchenko Vladimir Vladimirovich

BOSH MUHARRIR

Axmedov Bexruz Ibroxim o‘g‘li

MAS’UL KOTIB

Abdullayev Ulug‘bek Maxmudovich

KOMPUTER OPERATORI VA DIZAYNER

Yusupov Akim Konstantinovich

TAHRIRIYAT A’ZOLARI

Abdurahmonov Q.X.	- i.f.d., akademik	Ismoilova G.F.	- i.f.n., dotsent
Teshabayev T.Z.	- i.f.d., professor	Mirzayev D.A.	- PhD, dotsent
Raximov B.N.	- t.f.d., professor	Iminova N.A.	- i.f.n., dotsent
Kenjaboev A.T.	- i.f.d., professor	Utanov B.Q.	- PhD, professor
Begalov B.A.	- i.f.d., professor	Xolmuxammedov M.M.	- i.f.d., dotsent
Jo‘rayev A.S.	- i.f.d., professor	Ismailov X.M.	- PhD, dotsent
Davronbekov D.A.	- t.f.d., professor	Mamadiyarov Z.T.	- i.f.d., dotsent
Pisetskiy Y.V.	- t.f.d., professor	Po‘latov Sh.U.	- t.f.n., dotsent
Khallel Ahmad	- PhD, professor	Sultonova M.O.	- PhD, dotsent
Qobulov X.A.	- i.f.n., professor	Bazarov F.O.	- i.f.d., dotsent
Xolmamatov F.K.	- i.f.d., professor	Kasimov A.A.	- PhD, dotsent
Xakimov Z.T.	- i.f.d., dotsent	Qo‘chqarov M.A.	- PhD, dotsent
Xujamatov X.E.	- t.f.d., dotsent		
Isroilov J.D.	- PhD, dotsent		
Muxitdinov X.A.	- i.f.n., dotsent		

DIGITAL ECONOMY

SCIENTIFIC-ELECTRONIC JOURNAL

FOUNDER

“Digital economy research center” government entity

CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD

Kravchenko Vladimir Vladimirovich

EDITOR-IN-CHIEF

Akhmedov Bekhruz Ibrokhim ugli

EXECUTIVE SECRETARY

Abdullayev Ulugbek Makhmudovich

COMPUTER OPERATOR AND DESIGNER

Yusupov Akim Konstantinovich

EDITORIAL BOARD

Abdurahmonov K.Kh.	- DSc, academician	Ismoilova G.F.	- PhD, docent
Teshabayev T.Z.	- DSc, professor	Mirzayev D.A.	- PhD, docent
Rakhimov B.N.	- DSc, professor	Iminova N.A.	- PhD, docent
Kenjaboev A.T.	- DSc, professor	Utanov B.K.	- PhD, professor
Begalov B.A.	- DSc, professor	Kholmukhammedov M.M.	- PhD, docent
Jurayev A.S.	- DSc, professor	Ismailov X.M.	- PhD, docent
Davronbekov D.A.	- DSc, professor	Mamadiyarov Z.T.	- PhD, docent
Pisetskiy Y.V.	- DSc, professor	Pulatov Sh.U.	- PhD, docent
Khallel Ahmad	- PhD, professor	Sultonova M.O.	- PhD, docent
Kobulov Kh.A.	- PhD, professor	Bazarov F.O.	- PhD, docent
Kholmamatov F.K.	- DSc, professor	Kasimov A.A.	- PhD, docent
Khakimov Z.T.	- DSc, docent	Kuchkarov M.A.	- PhD, docent
Khujamatov Kh.E.	- DSc, docent		
Isroilov J.D.	- PhD, docent		
Mukhitdinov Kh.A.	- PhD, docent		

O'ZBEKISTONDA BIOIQTISODIYOT VA SIRKULAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MOHIYATI

Saidova Firuza Kamolovna

*Buxoro davlat universiteti, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta
o'qituvchisi*

Abdimannonov Zikirillo

3-1-AGB-21 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati yoritilgan. Bioiqtisodiyotning asosiy yo'nalishlari va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari muhokama qilinib, ularning mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari mavjud. Ushbu yondashuvlar barqaror rivojlanishni ta'minlash va ekologik xavfsizlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Bioiqtisodiyot, sirkulyar iqtisodiyot, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ РАЗВИТИЯ БИОЭКОНОМИКИ И ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Саидова Фируза Камоловна

*Бухарский государственный университет, Кафедра зелёной экономики и
агробизнеса, старший преподаватель*

Абдиманнонов Зикирилло

Студент группы 3-1-АГБ-21

Аннотация: В данной статье рассматривается социально-экономическая сущность развития биоэкономики и циркулярной экономики в Узбекистане. Обсуждаются основные направления биоэкономики и принципы циркулярной экономики, а также их роль в стабилизации национальной экономики. Результаты исследования показывают, что развитие биоэкономики и циркулярной экономики способствует повышению экономической

эффективности, защите окружающей среды и рациональному использованию ресурсов. Такой подход имеет важное значение для обеспечения устойчивого развития и экологической безопасности.

Ключевые слова: *Биоэкономика, циркулярная экономика, социально-экономическое развитие, устойчивое развитие, экологическая безопасность, рациональное использование ресурсов.*

SOCIO-ECONOMIC ESSENCE OF DEVELOPMENT OF BIOECONOMY AND CIRCULAR ECONOMY IN UZBEKISTAN

Saidova Firuza Kamolovna

Bukhara State University, Department of Green Economy and Agribusiness, Senior Lecturer

Abdimannonov Zikirillo

Student of group 3-1-AGB-21

Abstract: This article explores the socio-economic significance of developing bioeconomy and circular economy in Uzbekistan. It discusses the main directions of bioeconomy and the principles of circular economy, analyzing their role in stabilizing the national economy. The research findings indicate that fostering bioeconomy and circular economy can enhance economic efficiency, protect the environment, and ensure rational resource utilization. These approaches are crucial for achieving sustainable development and maintaining environmental safety.

Keywords: *Bioeconomy, circular economy, socio-economic development, sustainable development, environmental safety, rational resource utilization.*

KIRISH

Jahon miqyosida global iqtisodiy va ekologik muammolar ortib borayotgan bir davrda, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish muammosi tobora dolzarblashmoqda. An'anaviy iqtisodiy modelning ekologik oqibatlari va tabiiy resurslardan notekis foydalanish jarayoni jamiyat oldiga yangi vazifalarni qo'yamoqda. Shu nuqtai nazardan, bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyalari barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan holda iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim mexanizmlari sifatida qaralmoqda.

Bioiqtisodiyot – bu biologik resurslardan foydalanishga asoslangan iqtisodiy model bo'lib, u qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish orqali yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv tabiat resurslarining kamayib borishi va ekologik izlanishlar jarayonida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga

qaratilgan. Bioiqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal etishga, balki yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi turmush darajasini oshirishga ham xizmat qiladi. Sirkulyar iqtisodiyot esa material va resurslardan samarali foydalanishni, chiqindilarni minimal darajaga tushirishni va iqtisodiy faoliyatda qayta ishlash jarayonlarini joriy etishni ko'zda tutadi. Bu model iqtisodiy samaradorlikni oshirish va chiqindilarning kamayishiga erishish bilan birga, resurslar aylanishini ta'minlaydi. O'zbekiston iqtisodiyotida ham barqaror rivojlanish va ekologik muammolarni hal etish masalalari dolzarblashib borayotganligi sababli, bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish zarurati mavjud.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirish jarayonlarini modernizatsiya qilish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish strategiyasida resurslarni tejash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqarorlikni oshirish muhim o'rin tutadi. Shu munosabat bilan, bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarining iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi roli va ahamiyatini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tahlil qilish hamda ushbu tamoyillarni joriy etishning dolzarb masalalarini yoritishdan iborat. Mazkur tadqiqot O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ilmiy va amaliy bilimlarni kengaytirishga xizmat qiladi hamda barqaror iqtisodiy rivojlanish tamoyillarini joriy etish uchun nazariy va uslubiy asoslarni taklif etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot masalalari bugungi kunda nafaqat xalqaro, balki mahalliy ilmiy doiralarda ham dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Ushbu iqtisodiy modellarning mohiyati, afzalliklari va amaliyotdagi natijalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbekiston va Markaziy Osiyoda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot mavzusi nisbatan yangi bo'lib, ba'zi tadqiqotlar ushbu mavzuda ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. A. Qosimov o'z maqolasida O'zbekiston iqtisodiyotida sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish masalalarini ko'rib chiqadi. Olim ushbu modelning resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishdagi o'rnini qayd etadi va agrar sohada qishloq xo'jalik chiqindilarini qayta ishlash imkoniyatlarini tahlil qiladi. N. Abdullayev tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekistonda bioiqtisodiyotning rivojlanish imkoniyatlari va uni amaliyotda qo'llash mexanizmlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari bioiqtisodiy strategiyalarni davlat siyosati darajasida qo'llash zarurligini ko'rsatadi [1].

M. Rasulova o'z izlanishlarida sirkulyar iqtisodiyotning urbanizatsiya jarayonidagi ahamiyatiga e'tibor qaratgan. Olimning fikricha, chiqindilarni qayta ishlash va ularni iqtisodiy jarayonga kiritish orqali shahar iqtisodiyotida barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Sirkulyar iqtisodiyot xalqaro miqyosda asosan chiqindilarni qayta ishlash va resurslarni tejash tamoyillariga asoslanadi [2].

Xorijiy olimlar ushbu modelni iqtisodiy barqarorlikni oshirishda muhim deb biladilar. Bioiqtisodiyot esa qayta tiklanadigan bioresurslardan foydalanishni optimallashtirish va iqtisodiyotni "yashil"lashtirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Mahalliy tadqiqotchilar bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini O'zbekiston sharoitida joriy etish zarurligini ta'kidlab, ayniqsa qishloq xo'jaligi va sanoat sohalariga e'tibor qaratmoqdalar. Bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotning rivojlanishi O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy, balki ekologik muammolarni ham hal qilishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari ushbu yo'nalishlarni rivojlantirish uchun ilmiy va uslubiy asos yaratadi. O'zbekistonda ushbu konsepsiyalarni joriy etish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari kengayadi [3].


METODOLOGIYA

Ilmiy maqolani yozish jarayonida nazariy tahlil, empirik tahlil, komparativ tahlil, statistik va iqtisodiy tahlil usullari yordamida ma'lumotlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunda ekologik xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash jahon iqtisodiyotining muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik muammolarni hal qilish zarurati barqaror rivojlanish konsepsiyasiga asoslangan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. An'anaviy iqtisodiy modelning tabiiy resurslarga bo'lgan yuqori talabi va ularning tez kamayishi global muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish iqtisodiy rivojlanishning samarali yo'nalishi sifatida qaralmoqda.

Bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari iqtisodiy barqarorlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirish orqali ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan [5,6]. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bioiqtisodiyot - qayta tiklanadigan biologik resurslardan samarali foydalanishga asoslangan iqtisodiy model bo'lib, u tabiiy resurslarni tejash va ularni iqtisodiyotga qayta jalb qilishni nazarda tutadi.



1-rasm. Bioiqtisodiyot modelning asosiy tamoyillari¹

Bioiqtisodiyot modeli zamonaviy iqtisodiy rivojlanish tamoyillarini ekologik xavfsizlik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan. Ushbu modelning asosiy tamoyillari biomassa va bioenergetika resurslaridan foydalanish, yashil texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash hamda biomateriallar va biologik xom ashyolar asosida ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Mazkur tamoyillar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Bioiqtisodiy modelning muvaffaqiyatli joriy etilishi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhit muhofazasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi diagrammada keltirilgan tamoyillar bir-birini to'ldiruvchi elementlar sifatida qaraladi va kompleks yondashuvni talab etadi. Yashil texnologiyalar va qayta ishlash jarayonlari orqali iqtisodiy va ekologik manfaatlarni birlashtirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Sirkulyar iqtisodiyot esa resurslarni qayta ishlash, ularni uzluksiz aylanishda saqlash va chiqindilarni minimallashtirishga asoslangan iqtisodiy modeldir. Sirkulyar iqtisodiyotning asosiy xususiyatlariga resurs aylanishi va qayta tiklash, material va energiya tejamkorligi, iqtisodiy tizimda chiqindilarning minimal darajaga yetkazilishi kabilar kiradi [7,8].

O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish qishloq xo'jalik chiqindilarini qayta ishlash va ulardan bioyoqilg'i ishlab chiqarish uchun, energiya samaradorligi bo'yicha texnologiyalarni joriy etish, biotexnologiya va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish, sanoat chiqindilaridan ikkilamchi xom ashyo

¹ Muallif ishlanmasi

sifatida foydalanish hamda hududlarda yashil iqtisodiyot dasturlarini amalga oshirish kabi imkoniyatlarga olib keladi.

Bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish bugungi kunda jahon hamjamiyatida ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishda asosiy tamoyil sifatida ko‘rilmoqda. O‘zbekiston ham barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun ushbu yondashuvlarni faol ravishda joriy qilmoqda. Mazkur maqolada Osiyo va Yevropa davlatlarining tajribasi asosida bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Germaniyada yashil iqtisodiyot va ekotexnologiyalarga e‘tibor qaratilib, ishlab chiqarishda chiqindilar hajmi 60% ga kamaytirildi. Daniyada esa sirkulyar ishlab chiqarish tamoyillari asosida biomateriallardan foydalanish bilan energiya tejamkorligi 50% ga ortdi.

Bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha Osiyo va Yevropa davlatlarining tajribasi ushbu sohada samaradorlikka erishish uchun muhim yo‘l-yo‘riqdir. Xususan, Yaponiyaning texnologik innovatsiyalar va resurslarni qayta ishlashga asoslangan yondashuvi chiqindilar hajmini 40% ga qisqartirish imkonini berdi. Janubiy Koreyada esa qishloq xo‘jaligi biotexnologiyalaridan foydalanish natijasida bioyoqilg‘i ishlab chiqarish ko‘lami kengaytirilib, foydalanish darajasi 35% ga oshdi (1-jadval).

1-jadval

Bioiqtisodiyotni rivojlantirish: Osiyo va Yevropa davlatlari tajribasi²

Mamlakat	Yondashuv	Amaliyotlar	Natijalar va samaradorlik
Yaponiya	Texnologik innovatsiyalar va resurslarni qayta ishlash	Bioenergetika va chiqindilarni qayta ishlash	Chiqindilar hajmining 40% qisqarishi
Janubiy Koreya	Qishloq xo‘jaligida biotexnologiyalarni qo‘llash	Bioyoqilg‘i ishlab chiqarish va chiqindi gazlarni qayta ishlash	Bioyoqilg‘idan foydalanish darajasi 35% oshishi
Germaniya	Yashil iqtisodiyot va ekotexnologiyalar	Biomassadan energiya olish va chiqindilarni qayta ishlash	Ishlab chiqarishda chiqindilar hajmining 60% qisqarishi
Daniya	Sirkulyar ishlab chiqarish tamoyillari	O‘simliklardan biomateriallar yaratish	Energiya tejamkorligi 50% ga ortishi

Ushbu tajribalar O‘zbekiston uchun ham dolzarb bo‘lib, mamlakatimizda bioiqtisodiyotni rivojlantirish va sirkulyar iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yishda ushbu

² Muallif ishlanmasi

yondashuvlardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. O'zbekiston o'zining tabiiy va texnologik imkoniyatlarini hisobga olib, ushbu tajribalarni moslashtirish orqali ekologik barqarorlikka erishishi mumkin.

Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha Osiyo va Yevropa davlatlarining tajribasi ekologik barqarorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Niderlandiyada chiqindilarni qayta ishlash va qayta foydalanish tizimlari samaradorligi plastik chiqindilarni qayta ishlash va kompostlash orqali 80% ga yetkazilgan.

Xitoyda sanoat klasterlari va sirkulyar tizimlar texnologik integratsiya asosida ishlatilib, qayta ishlashda innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilgan. Shvetsiyada energetik sirkulyar iqtisodiyotning biomassa va qattiq yoqilg'ilarni qayta ishlash amaliyoti orqali energiya ishlab chiqarishda 90% qayta ishlash darajasiga erishilgan. Singapurda esa suv resurslarini qayta tiklash va chiqindilarni utilizatsiya qilish tizimlari suv iste'molini 30% ga qisqartirish imkonini bergan [9].

O'zbekiston uchun ushbu tajribalar qimmatli ahamiyatga ega bo'lib, chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini joriy qilish va biomassa energiyasidan foydalanish orqali resurs tejamlorligi va ekologik xavfsizlikni ta'minlash mumkin. O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirishda yuqorida keltirilgan davlatlarning tajribasidan foydalanish muhimdir. Ayniqsa, Yaponiyaning texnologik innovatsiyalari va Germaniyaning yashil iqtisodiyot yondashuvlari mahalliy sharoitga moslashuvi mumkin. Bundan tashqari, Daniya va Shvetsiyaning chiqindilarni qayta ishlash borasidagi tajribasi ham qimmatli o'rnakdir.

2-jadval

Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish: Osiyo va Yevropa davlatlari tajribasi³

Mamlakat	Asosiy tamoyillar	Amaliyotlar	Natijalar va samaradorlik
Niderlandiya	Chiqindilarni qayta ishlash va qayta foydalanish	Plastik chiqindilarni qayta ishlash va kompostlash	Chiqindilarni qayta ishlash darajasi 80% ga yetdi
Xitoy	Sanoat klasterlari va sirkulyar tizimlar	Texnologik integratsiya va chiqindilardan foydalanish	Qayta ishlashda innovatsion texnologiyalar
Shvetsiya	Energetik sirkulyar iqtisodiyot	Biomassa va qattiq yoqilg'ilarni qayta ishlash	Energiya ishlab chiqarishda 90% qayta ishlash
Singapur	Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar model	Suv resurslarini qayta tiklash va chiqindilarni utilizatsiya	Suv iste'molini 30% ga qisqartirish

³ Muallif ishlanmasi

Ushbu yondashuvlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali ekologik muammolarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin.

Xorij tajribasidan foydalanib, O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishlar mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun zarur.

Quyidagi jadvalda xorij tajribasini O'zbekistonga moslashtirish va qo'llash yo'llari ko'rsatilgan.

Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajribalarni O'zbekistonga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Asosiy yo'nalishlar plastik chiqindilarni qayta ishlash, biomassadan energiya olish va suv resurslarini tiklashdan iborat. Bu jarayonlarni amalga oshirish uchun qayta ishlash zavodlarini qurish, energiya komplekslarini yaratish va sanoat klasterlarini tashkil etish lozim.

Natijada plastik chiqindilarni qayta ishlash darajasini 50% ga yetkazish, sanoat suv iste'molini 30% ga qisqartirish va qishloq energetikasini mustaqil holatga keltirish kabi natijalarga erishish kutilmoqda. Bu iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

3-jadval

Bioiqtisodiyotni va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish yo'llari⁴

Xorij tajribasi	O'zbekistonga moslashtirish yondashuvi	Amaliyotlar	Kutilyotgan natijalar
Niderlandiyaning plastik chiqindilarni qayta ishlash tajribasi	Plastik chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash tizimini joriy etish	Maxsus qayta ishlash zavodlari qurish	Plastik chiqindilarni qayta ishlash darajasini 50% ga yetkazish
Xitoyning sanoat klasterlari	Sanoat korxonalari uchun sirkulyar tizimlar yaratish	Bir korxonaning chiqindisini boshqa korxona uchun xomashyo sifatida ishlatish	Resurs tejamkorligini oshirish va chiqindilarni minimallashtirish
Shvetsiyaning biomassa energiyasidan foydalanish tajribasi	Biomassadan elektr energiyasi olishni yo'lga qo'yish	Qishloq hududlarida biomassa energetika komplekslari qurish	Qishloq energetika mustaqilligini ta'minlash
Singapurning suv resurslarini tiklash tajribasi	Suvni qayta ishlash va tozalash tizimlarini joriy etish	Sanoat korxonalarida suvni qayta ishlatish tizimlarini yaratish	Sanoat suv iste'molini 30% ga qisqartirish

⁴ Muallif ishlamasi

O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish xorij tajribasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Asosiy e'tibor texnologik innovatsiyalarni joriy etish, qishloq xo'jalik chiqindilaridan foydalanish va qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilishi kerak. Xorijiy tajribalarni moslashtirish orqali O'zbekiston ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

XULOSA

O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu konsepsiyalar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishni nazarda tutadi. Bioiqtisodiyotning rivojlanishi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida yangi texnologiyalarni joriy etish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi, shu bilan birga, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Sirkulyar iqtisodiyot esa chiqindilarni minimallashtirish va resurslarni qayta ishlash asosida iqtisodiy tizimlarning uzluksizligini ta'minlaydi. Bu yondashuvlar aholini ish bilan ta'minlash, yashash sifatini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish natijasida barqaror iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikka erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev, F. (2021). Bank marketingi va moliyaviy boshqaruv asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot.
2. Karimov, A. (2020). Pul-kredit siyosati va banklar. Toshkent: Moliya.
3. Usmonov, N. (2022). Xalqaro bank ishi: Asosiy tamoyillar va amaliyotlar. Toshkent: Universitet nashriyoti.
4. Rahimova, L. (2023). Banklarda buxgalteriya hisobi va nazorat. Toshkent: Moliya.
5. Tursunov, S. (2020). Bank risklari va ularni boshqarish. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
6. Saidova, G. (2022). Bank auditining nazariy va amaliy asoslari. Toshkent: Moliya.
7. Yusupov, R. (2023). Elektron bank xizmatlari va raqamli moliyaviy texnologiyalar. Toshkent: Universitet.
8. Hamidov, M. (2020). Bank huquqi: Nazariy asoslar va amaliy yechimlar. Toshkent: Adolat.

9. Norboyev, O. (2021). Investitsion bank ishi: Moliyaviy tahlil va boshqaruv. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
10. Sobirov, K. (2022). Bank ishi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar. Toshkent: Universitet.
11. G'afurov, U. V., Xalilov, M. Sh., & Baymuradov, Sh. (2021). Davlat iqtisodiyoti va siyosati. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi.
12. Jumaev, T. (2023). Sirkulyar iqtisodiyot va ekologik xavfsizlik. Toshkent: Ilmiy meros.
13. Mustafoyev, R. (2022). Barqaror rivojlanish strategiyalari: Bioiqtisodiyotga yondashuv. Toshkent: Fan va texnologiya.
14. Nurmuhamedov, D. (2024). Qayta tiklanadigan energiya manbalari va bioiqtisodiyot. Toshkent: Ilmiy yutuqlar nashriyoti.
15. Ismoilov, D. (2021). Bank menejmenti: Innovatsion boshqaruv usullari. Toshkent: Iqtisodiyot.

O‘ZBEKISTON EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI

Ismatullayeva Shoira Nurlibekovna

*O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona
qo‘mitasining Toshkent viloyati Bojxona boshqarmasi xodimi*

dronzakai@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini oshirishda transport-logistika xarajatlarini optimallashtirishning ahamiyati ilmiy asosda tahlil etiladi. Eksport jarayonlarining samaradorligi bevosita transport infratuzilmasining rivojlanish darajasi, yuk tashish xarajatlarining minimallashtirilishi hamda logistika tizimining takomillashuvi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu omillar milliy mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta‘minlovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida eksport yuklarini tashish jarayonida transport xarajatlarini kamaytirish, logistika xizmatlarini optimallashtirish va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish masalalari atroflicha o‘rganiladi. Shuningdek, mazkur sohada xalqaro tajriba va O‘zbekiston iqtisodiyotiga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston eksport strategiyasini takomillashtirish, tashqi bozorlardagi iqtisodiy manfaatdorlikni oshirish va milliy mahsulotlarning global raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: eksport, transport-logistika, tashqi iqtisodiy faoliyat, transport xarajatlari, logistika tizimi, bojxona tartib-taomillari, xalqaro savdo, raqobatbardoshlik, infratuzilma, iqtisodiy samaradorlik.

ОПТИМИЗАЦИЯ ТРАНСПОРТНЫХ РАСХОДОВ В РАЗВИТИИ ЭКСПОРТА УЗБЕКИСТАНА

Исматуллаева Шоира Нурлибековна

*Сотрудник Таможенного управления Ташкентской области при
Государственном таможенном комитете Министерства экономики и
финансов Республики Узбекистан*

dronzakai@gmail.com

